

RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA YAPON TILIDA GAPIRISH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI

Baqoyev Navro'zjon Abdullo o'g'li

Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti
O'zbek va sharq tillari kafedrası mutaql tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ushbu maqola globallashuv va raqamli texnologiyalar asrida yapon tilini o'rganishda og'zaki nutq kompetensiyasini shakllantirishning dolzarb masalalariga bag'ishlangan. Tadqiqot doirasida yapon tili o'rganuvchilarining talaffuzi, ravonligi va kommunikativ qobiliyatlarini oshirishga xizmat qiluvchi zamonaviy vositalar — mobil ilovalar, onlayn muloqot platformalari, interaktiv simulyatorlar va sun'iy intellektga (AI) asoslangan nutqni tahlil qilish dasturlarining samaradorligi ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: Yapon tili, gapirish ko'nikmasi, raqamli ta'lim, onlayn platforma, sun'iy intellekt (AI), kommunikativ kompetensiya, aralash ta'lim (blended learning), til o'qitish metodikasi, interaktiv vositalar, motivatsiya.

KIRISH.

Mavzuning dolzarbligi va asoslanishi. Bugungi kunda jahon miqyosida kechayotgan globallashuv jarayonlari va texnologik inqilob xalqaro iqtisodiy, madaniy va siyosiy aloqalarni misli ko'rilmagan darajada kengaytirdi. Bu esa o'z navbatida xorijiy tillarni, xususan, iqtisodiy va texnologik salohiyati yuqori bo'lgan Yaponiya tilini o'rganishga bo'lgan talabni keskin oshirdi. O'zbekiston va Yaponiya o'rtasidagi strategik sheriklik munosabatlarining mustahkamlanib borayotgani, ta'lim, turizm va biznes sohalaridagi hamkorlikning rivojlanishi yapon tilini biladigan mutaxassislariga bo'lgan ehtiyojni yanada kuchaytirmoqda. Til o'rganishning to'rt asosiy tamoyili — o'qish, yozish, tinglab tushunish va gapirish ichida aynan og'zaki nutq, ya'ni gapirish ko'nikmasi amaliy muloqotning asosi hisoblanadi. Shunga qaramay, an'anaviy ta'lim metodlari ko'pincha bu ko'nikmani rivojlantirishda bir qator cheklovlariga duch keladi. Katta o'quv guruhlarida har bir talabaga individual yondashish, ularning nutqiy amaliyoti uchun yetarlicha vaqt ajratish va tabiiy muloqot muhitini yaratish deyarli imkonsizdir. Bu holatda o'quvchilar ko'proq passiv tinglovchi bo'lib qoladi va xato qilishdan qo'rqish (language anxiety) tufayli gapirishdan tortinadi.

So'nggi yillarda, ayniqsa, COVID-19 pandemiyasi til o'qitish metodikasiga ham o'zining jiddiy ta'sirini ko'rsatdi. Raqamli ta'lim muhiti til o'rganuvchilarga vaqt va makon cheklovlarisiz, o'zlariga qulay sharoitda shug'ullanish imkonini berdi. Zamonaviy tilshunoslik va pedagogika sohasidagi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, texnologiyaga asoslangan o'qitish (Technology-Enhanced Language Learning - TELL) o'quvchilarning motivatsiyasini oshirish va o'quv jarayonini individuallashtirishda katta salohiyatga ega. Tilshunos olim Jack C. Richards ta'kidlaganidek, "texnologiya endi shunchaki qo'shimcha vosita emas, balki u o'quv dasturining ajralmas qismiga aylanib, tilni o'rganish va o'rgatish usullarini tubdan o'zgartirmoqda"¹. Bu ayniqsa yapon tili kabi murakkab fonetik va grammatik tuzilishga ega tillarni o'rganishda yaqqol namoyon bo'ladi. Yapon tilidagi hurmat shakllari (keigo), murakkab fe'l tuslanishlari va o'ziga xos intonatsiya kabi jihatlarni faqat kitobdan o'rganish kifoya qilmaydi; ularni doimiy ravishda amaliyotda qo'llash talab etiladi. Aynan shu yerda raqamli vositalar — interaktiv ilovalar, sun'iy intellektga asoslangan suhbatdoshlar, virtual reallik simulyatsiyalari va onlayn muloqot platformalari beqiyos yordam beradi.

¹ Jack C. Richards. *Key Issues in Language Teaching*. Cambridge University Press, 2015.

Tadqiqot muammosi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi tadqiqot muammosi shakllanadi: Raqamli ta'lim muhiti yapon tili gapirish ko'nikmalarini samarali rivojlantirish uchun qanday imkoniyatlar yaratadi va bu jarayonda qanday metodologik yondashuvlardan foydalanish eng yuqori natija beradi? Ushbu tadqiqot ishi aynan shu kabi savollarga ilmiy va amaliy asoslangan javoblar topishga, raqamli vositalarni yapon tili darslariga samarali integratsiya qilishning metodologik asoslarini ishlab chiqishga qaratilgan.

Tadqiqotning maqsadi — yapon tilida gapirish ko'nikmalarini rivojlantirishda raqamli ta'lim vositalarining nazariy ahamiyatini ilmiy jihatdan asoslash hamda eng samarali metodlarni O'zbekiston ta'lim tizimi sharoitida pedagogik tajriba-sinov orqali amaliyotda sinab, ularning natijadorligini baholashdan iborat.

Nazariy asoslarni tahlil qilish: Raqamli ta'lim, kompyuter yordamida til o'qitish (CALL - Computer-Assisted Language Learning) va mobil yordamida til o'qitish (MALL - Mobile-Assisted Language Learning) sohalaridagi fundamental tadqiqotlarni o'rganish. Bu borada, Mark Warschauer kabi olimlarning texnologiyaning til o'qitishdagi evolyutsiyasiga oid qarashlari muhim ahamiyatga ega. U ta'kidlaganidek, "Biz oddiy mashqlardan iborat kompyuter dasturlaridan haqiqiy muloqot va hamkorlikni ta'minlovchi internetga asoslangan muhitlarga o'tdik"². Shuningdek, O'zbekistonlik olimlardan N.A. Muslimovning raqamli ta'lim texnologiyalarini o'quv jarayoniga tatbiq etish borasidagi tadqiqotlari, xususan, "Zamonaviy ta'limda raqamli texnologiyalar o'rganuvchilarning mustaqil va ijodiy faoliyatini rag'batlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi"³ degan fikri, mazkur ishning nazariy poydevorini mustahkamlashga xizmat qiladi.

1. Zamonaviy vositalarni o'rganish: Yapon tili og'zaki nutqini rivojlantirishga ixtisoslashgan zamonaviy raqamli vositalarning didaktik imkoniyatlarini o'rganish va tasniflash. Bu vazifa doirasida Duolingo yoki Memrise kabi geymifikatsiya elementlariga ega ilovalardan tortib, Tandem va HelloTalk kabi til almashinuv tarmoqlari, shuningdek, nutqni tahlil qiluvchi (speech recognition) sun'iy intellektga (AI) asoslangan Google Assistant yoki maxsus Yapon tiliga mo'ljallangan "AI Speak Tutor" kabi dasturlar tahlil qilinadi.

2. Pedagogik tajriba-sinovni amalga oshirish: Raqamli vositalar integratsiyasiga asoslangan maxsus o'quv dasturini ishlab chiqish va uning samaradorligini O'zbekistondagi yapon tili o'rganuvchilari (masalan, bakalavriat bosqichi talabalari) ishtirokida sinovdan o'tkazish.

3. Natijalarni tahlil qilish va tavsiyalar ishlab chiqish: Tajriba-sinov davomida olingan miqdoriy (test ballari) va sifat (talaffuzdagi o'zgarishlar, so'rovnomalar) ko'rsatkichlarini statistik metodlar yordamida qiyosiy tahlil qilish. Olingan xulosalar asosida yapon tili o'qituvchilari va ta'lim dasturlarini ishlab chiquvchilar uchun amaliy tavsiyalar va metodik ko'rsatmalar tayyorlash.

Tadqiqot obyekti sifatida O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida yapon tilini o'rganayotgan talabalarda gapirish ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish jarayoni tanlandi.

Tadqiqot predmeti esa raqamli ta'lim texnologiyalari (interaktiv platformalar, mobil ilovalar, AI-dasturlar) yordamida yapon tili gapirish ko'nikmalarini (talaffuz, ravonlik, leksik-grammatik to'g'rilik) takomillashtirishning o'ziga xos metodlari, vositalari va samaradorlik ko'rsatkichlarini tashkil etadi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi bir necha muhim jihatlar bilan belgilanadi:

Birinchidan, O'zbekiston ta'lim tizimi kontekstida yapon tili og'zaki nutqini aynan raqamli vositalar yordamida rivojlantirishning samaradorligi ilk bor empirik (tajriba-sinov) yo'l bilan tekshiriladi va ilmiy asoslanadi. Aksariyat tadqiqotlar ingliz tili misolida olib borilgan bo'lsa, mazkur ish yapon tilining o'ziga xos fonetik va grammatik xususiyatlarini hisobga olgan holda O'zbekistonlik o'rganuvchilar uchun moslashtirilgan yondashuvni taklif etadi.

Ikkinchidan, sun'iy intellektga (AI) asoslangan nutqni baholash tizimlarining o'quvchilar talaffuzi va ravonligini yaxshilashdagi roli va aniq ta'sir mexanizmi baholanadi. "Sun'iy intellektli suhbatdoshlar

² Warschauer, M. (2000). *The changing global economy and the future of English teaching*. TESOL Quarterly, 34(3), 511-535

³ Muslimov, N.A., & va boshqalar. (2015). *Innovatsion ta'lim texnologiyalari*. "Sano-standart" nashriyoti.

o'rganuvchiga xavfsiz va bosim qilmaydigan muhitda cheksiz mashq qilish imkoniyatini beradi, bu esa o'ziga ishonchni oshirish uchun juda muhimdir"⁴.

Uchinchidan, an'anaviy sinf xonasi mashg'ulotlari va raqamli texnologiyalarni uyg'unlashtiruvchi "aralash ta'lim" (Blended Learning) modelining yapon tili o'qitish uchun moslashtirilgan varianti taklif etiladi. Ushbu modelda o'qituvchining roli nazoratchidan ko'ra ko'proq yo'naltiruvchi (fasilitator) vazifasini bajaradi, o'quvchilar esa raqamli vositalar yordamida o'z bilimlarini mustaqil mustahkamlash imkoniga ega bo'ladilar. Bu yondashuv nafaqat o'quv samaradorligini, balki o'quv jarayonining moslashuvchanligini ham oshirishga xizmat qiladi.

II. TADQIQOT METODLARI VA USULLARI

Mazkur tadqiqotning maqsadi va vazifalaridan kelib chiqib, ilmiy bilishning bir-birini to'ldiruvchi nazariy va empirik metodlaridan kompleks foydalanildi. Tadqiqotning har bir bosqichida qo'llanilgan metodlar uning xolisligi, ishonchliligi va ilmiy asoslanganligini ta'minlashga xizmat qiladi.

2.1. Nazariy metodlar

1. Adabiyotlar tahlili: Tadqiqotning nazariy poydevorini yaratish maqsadida tilshunoslik, pedagogika, axborot texnologiyalari va xorijiy tillarni o'qitish metodikasi sohalariga oid fundamental va zamonaviy ilmiy manbalar qiyosiy tahlil qilindi. Bu jarayonda Krashenning "tushunarli kiritma" (comprehensible input) va "affektiv filtr" (affective filter) gipotezalari⁵ kabi klassik nazariyalar raqamli muhitda qanday aks etishi o'rganildi. Shuningdek, O'zbekistonlik olimi G.T. Maxkamovning kommunikativ kompetensiyani shakllantirishga oid qarashlari, xususan, "muloqotga kirishishda nafaqat lingvistik bilimlar, balki sotsiomadaniy va strategik layoqatlar ham muhim ahamiyat kasb etadi"⁶ degan fikri, yapon tilining murakkab hurmat shakllarini (keigo) o'rgatishda raqamli simulyatsiyalardan foydalanish zaruratini asoslashga yordam berdi.

2. Tasniflash va tizimlashtirish: Yapon tili gapirish ko'nikmalarini rivojlantirishga mo'ljallangan raqamli vositalar ularning funksional imkoniyatlariga ko'ra tasniflandi. Bu tasnif vositalarni pedagogik maqsadlarga muvofiq tanlash va o'quv jarayoniga tizimli integratsiya qilishga imkon beradi. Vositalar quyidagi guruhlarga ajratildi:

Talaffuzni mashq qildiruvchilar: Nutqni aniqlash (speech recognition) texnologiyasiga asoslangan dasturlar (masalan, "Japanese Accent & Pronunciation Tutor", Google's pronunciation feedback tool).

Lug'at boyligi va iboralarni o'rgatuvchilar: Intervalli takrorlash (spaced repetition) metodiga asoslangan ilovalar (Anki, Memrise).

Real vaqtda muloqot platformalari: Haqiqiy yapon tilida so'zlashuvchilar bilan bog'lanish imkonini beruvchi ijtimoiy tarmoqlar (Tandem, HelloTalk).

III. MUNOZARA VA MUHOKAMA (DISCUSSION)

3.1. Natijalarning interpretatsiyasi

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, Tajriba guruhining Nazorat guruhiga nisbatan sezilarli darajada yuqori ko'rsatkichlarga erishishi bir nechta o'zaro bog'liq omillar bilan izohlanadi:

1. "Affektiv filtr"ning pasayishi: Xato qilishdan qo'rqish va psixologik bosim ("affektiv filtr") til o'zlashtirishga to'sqinlik qiladi⁷. Raqamli vositalar, ayniqsa AI- suhbatdosh talabaning o'ziga ishonchni oshirib, nutqiy faollikni rag'batlantirdi.

2. Shaxsiylashtirilgan ta'lim va fikr-mulohaza: An'anaviy sinfda o'qituvchi har bir talabaning talaffuzini doimiy nazorat qila olmaydi. Sun'iy intellektga asoslangan dasturlar esa har bir tovush va intonatsiya

⁴ Arjmandi, G., & Ebadi, S. (2023). *The Effect of an AI-Powered Chatbot on Speaking Fluency and Accuracy of Iranian EFL Learners*. Journal of English Language Teaching and Learning, 15(31), 1-28. URL: https://jeltl.tabrizu.ac.ir/article_16281.html

⁵ Krashen, S. D. (1982). *Principles and Practice in Second Language Acquisition*. Pergamon Press

⁶ Maxkamova, G.T. (2018). *The development of intercultural competence of future English language teachers*. Foreign Languages in Uzbekistan. №2(21), 6-16.

⁷ Krashen, S. D. (1982). *Principles and Practice in Second Language Acquisition*. Pergamon Press. URL: http://www.sdkrashen.com/content/books/principles_and_practice.pdf

bo'yicha oniy (instant) va xolis fikr-mulohaza berib, talabaga o'z kamchiliklari ustida individual ishlash imkoniyatini yaratdi. Bu jarayon, tadqiqotchi Chapelle aytganidek, "o'rganuvchiga o'z o'quv trayektoriyasini o'zi nazorat qilish imkonini beradi"⁸.

Xulosa qilib aytganda, mazkur tadqiqot raqamli ta'lim muhitining yapon tili gapirish ko'nikmalarini rivojlantirishdagi muhim ahamiyatini nazariy va amaliy jihatdan isbotlab berdi. Pedagogik tajriba-sinov natijalari shuni ko'rsatdiki, sun'iy intellekt, interaktiv ilovalar va onlayn muloqot platformalarini o'quv jarayoniga tizimli integratsiya qilish an'anaviy metodlarga qaraganda sezilarli darajada yuqori samaradorlikka erishish imkonini beradi. Raqamli vositalar o'quvchilarga xavfsiz muhitda ko'proq amaliyot o'tash, oniy fikr-mulohaza olish va o'quv jarayonini shaxsiylashtirish orqali ularning motivatsiyasi, o'ziga ishonchi va natijada kommunikativ kompetensiyasini oshirish uchun beqiyos imkoniyatlar yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Baqoyev Navro'zjon. "Raqamli ta'lim muhitining asosiy tushunchalari va yapon tilida gapirish ko'nikmalarini rivojlantirish." Zamonaviy filologiya muammolari 2, no. 3 2025, 108-114 p.
2. Bakoev N. "One of modern language teaching methods is task-based language teaching (tblt) disadvantages and its solutions." Educational research in universal sciences 3, no. 4 2024: 53-57 p.
3. Baqoyev N. "O'zbek tilidagi "qo'l" so'zi va u qatnashgan iboralar semantikasi." Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 3, no. 2, 2023, 414-417 p.
4. Bakoev Navruzjon, and Mushtariybonu Abdumutalova. "Yapon tilidagi kansai shevasi va o'ziga xosligi." Interpretation and researches 1, 2023, -17 p.
5. Bakoev Navruzjon, and Shirin Yuldasheva. "Yaponiya ta'lim tizimi." Interpretation and researches 1 2023, -17 p.
6. Bakoev Navruzjon, and Shohruhjon Ravshanov. "Yapon tilidagi iyerogliflar." Educational Research in Universal Sciences 2, no. 16 2023, 84-87 p.
7. Bakoev Navruzjon, and Feride Sheraliyeva. "Yaponiya turizm sohasi va rivojlanishi." Interpretation and researches 1, 2023, 18 p.
8. Davis, Fred D. "Perceived usefulness, perceived ease of use, and user acceptance of information technology." MIS quarterly 1989, 319-340 p.
9. Kooti, Masume, Marjan Abyavi, Hamideh Mombeini, and Paria Allahdini. "The Impact of AI-Integrated Language Instruction on EFL Learners' Speaking Proficiency, Speaking Anxiety, and Foreign Language Motivation." Assessment and Practice in Educational Sciences 3, no. 3 2025, 1-13 p.
10. Krashen, Stephen. "Principles and practice in second language acquisition." 1982, 90-110 p
11. Chapelle, Carol, and Carol A. Chapelle. Computer applications in second language acquisition. Cambridge university press, 2001. 55-80 p.

⁸ Chapelle, C. A. (2001). *Computer Applications in Second Language Acquisition: Foundations for Teaching, Testing, and Research*. Cambridge University Press